

**“MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR  
O‘RINBOSARINING FAOLIYATI VA UNING O‘ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI”**

*Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani*

*25 sonli Davlat maktabgacha talim*

*tashkiloti direktor o'rinbosari*

**Abdullayeva Nigora Azamat qizi**

*E-pochta: [m.abdullayeva@gmail.com](mailto:m.abdullayeva@gmail.com)*

*<https://t.me/abdullayeva0100>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori o‘rinbosarining faoliyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada direktori o‘rinbosarining ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish, pedagogik jamoani metodik qo‘llab-quvvatlash, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash va ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishdagi roli ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ushbu lavozimning maktabgacha ta’lim tizimidagi ahamiyati va natijadorlikni oshirishga qo‘shgan hissasi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, direktori o‘rinbosari, metodik faoliyat, pedagogik boshqaruv, ta’lim-tarbiya jarayoni, bolalar rivojlanishi, ota-onalar bilan hamkorlik, ta’lim sifati.

**KIRISH.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubchi (tarbiyachi-metodist) lavozimining direktor o‘rinbosari lavozimiga o‘zgartirilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan amalga oshirildi. Ushbu farmonga muvofiq, 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-metodist lavozimi negizida direktor o‘rinbosari lavozimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori o‘rinbosarining faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlar tarkibiga esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom: Mazkur nizom maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi 531-son qarori: Ushbu qaror davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibini belgilaydi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori o'rinbosarining lavozim majburiyatlari va malaka talablari tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2020-yil 30-dekabrda 255-son buyrug'i bilan tasdiqlangan lavozimlar uchun belgilangan malaka talablarida direktor o'rinbosarining vazifalari va ularning bajarilishi bo'yicha talablar keltirilgan.

### **ASOSIY QISM.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori o'rinbosari lavozimini joriy etilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshilash, pedagogik faoliyatni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Direktori o'rinbosari bolalar bilan ishlashni muvofiqlashtirish va metodik jihatdan rahbarlik qilish vazifalarini bajaradi.

Direktor o'rinbosari o'zining pedagogik tajribasi va bilimlari asosida tarbiyachilarni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Bu pedagoglarning o'z ishlarida yangi pedagogik usullarni joriy etish, malakalarini oshirish va ta'limda innovatsiyalarni amalga oshirishga o'z navbatida, bolalarning rivojlanishiga yordam beradigan metodik va organizatsion ishlarni samarali amalga oshirish imkonini yaratadi.<sup>1</sup> Bu lavozimning joriy etilishi maktabgacha ta'limda metodik yordam va nazoratning kuchayishiga imkon beradi. Direktor o'rinbosari o'quv dasturlarining to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi va pedagogik faoliyatni baholashni amalga oshiradi. ta'lim-tarbiya jarayonining barcha

---

<sup>1</sup> . Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140

bosqichlarini koordinatsiya qilishga yordam beradi, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotining ichki jarayonlarini optimallashtirish, ishlash tartibini mustahkamlash va tashkilotning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, bu lavozim maktabgacha ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, tarbiyachilarning kasbiy malakasini mustahkamlash va bolalar rivojlanishining sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori o'rinbosarining vazifalari quyidagilardan iborat:

**Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish:** Pedagogik jamoa va boshqa xodimlarning bolalar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarida yuqori samaraga erishishini tashkil etish ishlari amalga oshiriladi va ta'lim-tarbiya jarayonini davlat ta'lim standartlari va dasturlariga muvofiq tashkil etish, o'quv yili uchun ta'lim-tarbiya rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish va ularni amalga oshirishga rahbarlik qilish, pedagoglar faoliyatini rejalashtirish va har bir pedagogning yuklamasini adolatli taqsimlash kabi keng qamrovli jarayonlar nazoratga olinadi

**Metodik rahbarlik:** Tarbiyaviy jarayonda mehnatni tashkil qilishning zamonaviy shakllaridan foydalanishni ta'minlash va pedagogik kengashga rahbarlik qilishda pedagoglarga uslubiy qo'llanma va tavsiyalar berish, ularning darslarini kuzatib, samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, tarbiyachilarga o'quv jarayonini bolalarning yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etish bo'yicha yordam ko'rsatish ishlari olib boriladi.

**Nazorat va monitoring:** Bolalarni boshlang'ich sinfda o'qitishga tayyorlash bo'yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq tarbiyalash dasturlarining bajarilishi nazorat qilinadi.

**Ota-onalar bilan hamkorlikda:** Oilada farzand tarbiyasi masalalari bo'yicha ota-onalar bilan ishlashni tashkil etish ishlari olib boriladi. Ota-onalarning fikrlarini o'rganiladi. Oiladagi tarbiyaviy muhitni aniqlash va kerak bo'lsa, uni yaxshilashga ko'maklashish choralari ko'riladi.

**Xodimlar bilan ishlash:** Kadrlarni tanlash, joy-joyiga to'g'ri qo'yishni ta'minlash, ularning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va zaruriy ish hujjatlarining yuritilishini nazoratga oladi.

Ushbu vazifalar maktabgacha ta'lim tashkilotining samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bolalarning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyasiga xizmat qiladi.

### **XULOSA.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori o'rinbosari lavozimi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu lavozim pedagogik jamoaning malakasini oshirish, innovatsion usullarni joriy etish va ta'lim sifatini yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Direktor o'rinbosari bolalarning rivojlanishini kuzatish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ota-onalar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish orqali maktabgacha ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu sababli, ushbu lavozimni yanada rivojlantirish va malakali kadrlarni jalb etish ta'lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. “O‘zbekiston”, 2017 y. – 47-b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 y. 7 dekabr. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi 29.12.2020-yil
5. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.-T.: TDPU, 2000.52 b
6. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova “Maktabgacha pedagogika - T.: Ma'naviyat 2019 y.

7. Kayumova N. “Maktabgacha pedagogika”. TDPU nashriyoti T.: 2013 y. 14b
8. Qayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika” TDPU nashriyoti -T.: 2017 y.
9. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. To‘ldirilgan qayta nashr. –T.: TDPU, 2017 y.
10. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.2018. 12-14-b
11. Sodiqova SH.A. “Maktabgacha pedagogika”, “Tafakkur sarchashmalari” -T.: 2013 y.
12. To‘raxonova Z, Sayriddinov D. “Tarbiyachining ma’naviy qiyofasi” O‘quv qo‘llanma T- “Sharq nashriyoti” 2016-y 46-47-b
13. Ko‘chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O‘RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 778-783.
14. Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140.
- 15.Ko‘chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O ‘QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI //" Science Shine" International scientific journal. – 2024. – T. 16. – №. 1.
16. Atamurodova Q. G. Factors and means of individual spiritual development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 771-774.
17. Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140

18. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447
19. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447
20. Ko'chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O'QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI //" Science Shine" International scientific journal. – 2024. – T. 16. – №. 1
21. Ko'charova D., Ko'chkinova M. XURSHID DO 'STMUHAMMAD NASRIDA DIDAKTIK TAMOYILLAR //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 703-707
22. Ko'charova D., Ko'chkinova M. ABDULLA QODIRIYNING OBRAZ YARATISH MAHORATI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 714-716
23. Ko'chkinova Makhliyo Norbutayevna, & Ravshanov Muhammad G'afur o'g'li. (2021). THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE LIVES OF CHILDREN WITH DISABILITIES. European Scholar Journal, 2(6), 193-194. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/articl>.